

## MASOFAVIY TA'LIM VA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYA VOSITALARINING TA'LIM JARAYONI RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI

**Olimjonova Gulnoza No'monjon qizi**

*Guliston davlat Universiteti*

*“Xorijiy til va adabiyoti” yo'nalishi 2- bosqich talabasi.*

**Anotatsiya:** *Maqola dolzarb muammolardan biri hisoblangan masofaviy ta'lim tizimi va ularni tashkil etishda qo'llaniladigan axborot kommunikatsion texnologiya vositalari xususida so'z yuritadi . Masofaviy ta'lim tizimining paydo bo'lish tarixi va jahon miqyosidagi masofaviy ta'lim tizimining joriy etilishi maqola davomida yoritilib boriladi . Shu bilan birgalikda , yurtimizda masofaviy ta'lim tizimi shakllanishining sabablari va karantin cheklouvlari sababli joriy etilgan masofaviy ta'lim tizimi , bu orqali erishilgan yutuq va kamchiliklar , masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishda ishlatiladigan axborot kommunikatsion texnologiyalar va ularning ahamiyati , ularning ushbu tizim faoliyatida qo'llanilishining afzallik jihatlari ham ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalari , masofaviy ta'lim tizimi, masofaviy o'qitish , kompyuter , televizor , planshet.*

### **Kirish**

Hozirgi zamon ta'lim jarayoniga an'anaviy tushunchalar bilan bir qatorda yangidan yangi tushunchalar kirib kelmoqda . Masofaviy ta'lim , masofaviy o'qish , masofaviy o'qitish , va masofaviy ta'lim axborot texnologiya vositalari tilimizga kirib kelayotgan yangi tushunchalarga yorqin misol bo'la oladi .

Masofaviy ta'lim - masofadan turib o'quv axboratlarini almashuvchi vositalar negizida shakllangan bo'lib , maxsus axborot muhiti yordmida aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini o'qituvchi tomonidan ko'rsatuvchi ta'lim kompleksi jarayonidir.

Masofaviy o'qish - bu yangi axborot texnologiyari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari asoslangan ta'lim tizimidir. Bu jarayon o'quvchidan ko'p mustaqil tarzda bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'lab etadi.

Masofaviy o'qitish - bu eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllarni o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim shaklidir.

Masofaviy ta'lim axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalari – masofaviy ta'limni amalga oshirishda zarur bo'lgan texnologiya vositalari.

### **Asosiy qism**

Ma'lumotlarga qaraganda , masofaviy ta'lim tizimi 1969 – yili Angilya bosh prime – minister G.Vilson tashabbusiga ko'ra tashkil etilgan . Aslida , bu o'qitish texnologiyasi o'tish muntazam pochta aloqalari shakllanishiga to'g'ri keladi . Masofaviy ta'lim tizimining qanchalik samarali va ommabop ekanligini , o'tgan asrning 90- yillarida Angilyada 40- ga yaqin masofaviy ta'lim tizimi shakllanganligi va ularga har yil kesimida 65 ming kishi tomonidan o'qish uchun ariza topshirilganligi ko'rsatishi mumkin . Hozirgi kunda Yevropaning har bir mamlakatida masofaviy ta'lim tizimi joriy etgan ta'lim muassasalari soni kunda kunga jadal sur'atda ko'payib bormoqda . Chunki masofaviy o'qitish tizimi ta'lim oluvchilarga qulay vaqtda o'qitishlari uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi .

Jahon hamjamiyatining tajribasini o'rgangan holda ona diyorumizda ham masofaviy ta'lim tizimini shakillantirishga bosqichma – bosqich ishlar amalga oshirilmoqda . Misol uchun , 2022 – 2023 o'quv yili uchun Oliy ta'lim muassasalari tomonidan masofaviy ta'lim shakli uchun kvotalar e'lon qilindi .

Yurtimizda ma'lum bir sohadagi mutahassislarning yetishmasligi sababli , masofaviy ta'lim tizimining joriy etilishi bugungi kun talabiga aylanmoqda . Qolaversa , 2019 – yildagi karantin sharoitida masofaviy ta'limga nisbatan talab juda ham kuchayganligini takidlab o'tishimiz joizdir . Karantin cheklovlari sababli Respublika bo'ylab barcha Oliy va O'rta ta'lim muassasalari faoliyatlarini vaqtinchalik cheklab qo'yildi . Ana shunday bir vaqtda barcha talabalar va o'quvchilarni ta'lim olish jarayonini uzluksiz davom ettirish maqsadida masofaviy ta'lim tizimi birdan bir yechim sifatida jamoatchilik nazariga tushdi va har bir sinf kesimida dars jadvallari tuzilib , ular asosida video darslilar tayyorlanib , oynayi jahon orqali ma'lum bir vaqtda namoyish etildi . Har bir o'rganuvchilarning o'zlashtirish qobiliyati bir xil emasligi hisobga olinib , video darsliklar ijtimoiy tarmoqlarga ham yuklanib borildi . Masofaviy ta'lim orqali ko'plab ta'lim oluvchilar bir vaqtning o'zida , yurtimizning 12 viloyatidan , o'zlariga qulay bo'lgan paytda ma'lum bir ko'nikmalarni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar . Shu bilan birga , bu sohada ma'lum bir qiyinchiliklar yuzaga kela boshladi . Ulardan biri aholi qatlamining yetarli darajada axborot kommunikatsion texnologiya vositalari bilan taminlanmaganliklari va internet tarmog'ining yurtimizdagi barcha hududlarda bir xil tarzda muntazam ish yurita olmasligi edi .

Axborot kommunikatsion texnologiya vositalari – bu kundalik hayotimizda axborot almashinuv jarayonida ishlatiladigan qurilmalari

yig'indisidir . Ularga kompyuter , mobil aloqa vositalari , televizor , noutbuk , planshet , elektron doska va boshqa bir qator texnologik vositalar kiradi . Barchamizga ma'lumki , masofaviy ta'lim tizimini axborot kommunikatsion texnologiyalarsiz tashkil etishning imkoni yo'qdir . Yuqoridagi kabi texnologik vositalar masofaviy ta'limning asosiy negizi hisoblanadi . 2005 – yil 6- mayda Rossiya Federatsiyasi Ta'lim va fan vazirligining buyrug'I e'lon qilindi , bu buyruqda quyidagi so'zlar ba'yon etilgan edi: “ Masofaviy ta'lim texnologiyalari deganda , asosan , bilvosita yoki to'liq bo'lmagan vositachilik negizida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ta'lim texnologiyalari tushiniladi .

Hozirgi kunda masofaviy ta'lim tizimini internet tarmoqlaridan foydalangan holda amalga oshirish keng tarqalgan bo'lib, po'chta tizimidan foydalanish insonlarning e'tibor markazida qolmoqda. Chunki, internet orqali tayyor video darslarni xabar ilovalariga joylash yoki video chaqiruv yoki zoom ilovasi orqali osongina amalga oshirishlari mumkin.

Masofaviy ta'lim tizimini axborot kommunikatsion texnologiyalari vositasida tashkil etishning bir qator afzallik jihatlari bordir:

- O'quv jarayonining samaradorligini ta'minlagan holda , o'quvchiga o'z ustida ko'proq ishlash va mustaqil izlanish imkonini beradi ;

- O'quvchilarning ijtimoiy faolligini va ma'lum bir ma'lumotni mustaqil tahlil qila olish imkoniyatini oshirishga yordam beradi ;

- Har bir o'quvchiga individual ta'lim shaklini yaratishga imkon beradi ;

- Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda , o'quvchilarga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakillantirishga yordam beradi .

### **Xulosa**

Masofaviy ta'lim tizimi bugungi kun talabi hisoblanib , unda o'qitish saviyasining yanada yuqori bo'lishiga erishiladi . Bunday ta'lim tizimini yaratishda esa har bir mamlakat , davlat , shahar , Oliy ta'lim va O'rta ta'lim muassasalari , pedagoglar axborot kommunikatsion texnologiya vositalari ko'magidan foydalanishadi .

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1 . I.M.Ibragimov ; Axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim vositalari , M: Akademiya, 2007-yil.

2 . <https://fayllar.org>.

3 . <https://arxiv.uz>.

4 . U.Nazarov , A.Karimov , “ Ta'limda axborot texnologiyalari “ fanidan ma'ruzlar matni , Samarqand – 2014.